

Arab davlatlarida ta'lim tizimi

Madina Abdumalik qizi Tojiboyeva
xojiboyevamadinaxon@gmail.com

Gulnoza Urol qizi Urolova
urolovagulnoza@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab davlatlaridagi ta'lim tizimi va arab mamlakatlari mustamlaka qilgan mamlakatlardagi ta'lim shuningdek, arab mamlakatlarining turli davrlardagi ta'lim tizimi haqida ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: Arab Xalifaligi, Markaziy Osiyo, Islom dini, olimlarning ilm yo'lidagi xizmatlari, maktablar

Education system in Arab countries

Madina Abdumalik kizi Tojiboyeva
khoziboevaminaxon@gmail.com

Gulnoza Urol kizi Urolova
urolovagulnoza@gmail.com

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after
Alisher Navoi

Abstract: This article contains information about the education system in the Arab countries and the education in the countries colonized by the Arab countries, as well as the education system of the Arab countries in different periods.

Keywords: Arab Caliphate, Central Asia, Islamic religion, services of scientists in the way of science, schools

Hammamizga ma'lumki arab mamlakatlarida islom dinining tarqalishi ilmfanning rivojlanishiga hamda madaniyatning taraqqiy topishiga ulkan hissa qo'shgan. Islom dini asos qilib olingan ta'lim tizimi vujudga kelgan va u arab mamlakatlarining rivojlanishiga sababchi bo'lgan. Sharq uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya arab xalifaligi, yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yagona islom dinining tarkib topishi biroz oldin aytilgan ma'naviy hayotda ham o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Ana shu ko'tarilish butun Arab xalifaligini, Yaqin va o'rta sharqni qamrab olganligi uchun ham Sharq uyg'onish davri deb ataldi.

Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan uygʻonish davri xalifalikning Damashq, Bagʻdod, Xalab shaharlarida boshlanadi va boshqa koʻplab xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham taʼlim ham maʼnaviy-madaniy rivojlanishiga zamin tayyorlagan. Xalifalikning yemirilishi jarayonida tashkil topgan koʻpgina mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik madaniy rivojlanishining davomi edi. Arab xalifaligida Islom dini va uning taraqqiyoti tufayli yuzga kelgan taʼlimiy, madaniy-maʼrifiy oʻzgarishlar nafaqat arab mamlakatiga balki boshqa mamlakatlar taraqqiyotiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Xalifa Xorun ar-Rashid davrida va uning oʻgʻli al-Maʼmun davrida Bagʻdodda "Bayt-ul-hikma" (donishmandlar uyi) (hozir Akademiya maʼnosida) tashkil etiladi. Mazkur akademiya barcha ilm sohiblarining ilmiy markaziga aylanadi. Uning roʻparasida jahon kutubxonasi tashkil etilgan. Ushbu akademiya 813-833 yillarda yanada rivojlangan. Akademiya qoshida rasadxona ham boʻlgan, keyinchalik yana bir kutubxona ham qurilgan. Bagʻdodda ushbu bilim markazi, oʻz navbatida sharq va gʻarbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, maʼnaviy hayotning rivojlanishiga taʼsir etgan. Bu oʻrinda Xalifa al-Maʼmunning ilm-fan ravnaqida koʻrsatgan homiyligini alohida taʼkidlash joiz.

Zero, xalifa al-Maʼmun ilm fanni juda qadrlagan. Ilm yoʻlida koʻpgina ijobiy ishlarni amalga oshiradi. U IX asr boshlaridan xalifalikning Xurosondagi noibi boʻlib turgan paytda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni toʻplab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-fargʻoniy, al-Marazviy kabi vatandosh olimlarimiz ham boʻlgan. Al-Maʼmun xalifalik taxtiga oʻtirgach u olimlarning barchasini Bagʻdodga chaqirib oladi va Bayt-ul-hikma (donishmandlik uyi) (Maʼmun akademiyasi)da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

VII-VIII asrlarda arab istilolari natijasida xalifalik deb atalgan kata davlat vujudga keldi. Bu davlat tarkibiga Arabistondan tashqari Suriya, Falastin, Mesopatamiya, Eron, Oʻrta Osiyo, gʻarbda esa Shimoliy Afrika va Pirenet yarim orolining janubiga kirdi. Istilochilar oʻzlari boʻysundirgan xalqlarga yangi dinni - Islom dinini zoʻrlab qabul qildirdilar.

Islom dini bilan birga shu dinning "muqaddas" boʻlgan Qurʼonning tilini, yaʼni arab tilini oʻrganish joriy qilindi. Qurʼonni boshqa tillarga tarjima qilish taʼqiqlab qoʻyildi va umi tarjima qilgan kishining boshi olinajagi elon qilindi. Xalifalikni xilma-xil qabilalar yashaydigan qismlari arab tili orqali bir-biri bilan aloqa qilib turardi. Xalifalik boʻlinib, ketganidan keyin (X asr) arab tili xalqlar oʻrtasida savdo va madaniy aloqa vositasi boʻlib xizmat qilib qolaverdi.

Musulmon maktablarida arab tili alohida muhim fan tariqasida oʻqitilardi, bilimlar ana shu tilda oʻrganilar edi.

Musulmon maktablarida o'quvchilarga "Inson umrbod Xudoning yo'l - yo'rig'idan chiqmasligi lozim", demak, o'z hokimlariga itoat qilishi lozim, chunki hokimlar xudoning yerdagi soyasidir, bu dunyoni o'ylamay u dunyoni o'ylamoq kerak deb ta'kidlab kelingan. Ko'p asrlar davomida islom falsafasi va pedagogikasining asoschilaridan biri deb hisoblab kelingan G'azzoliy (XI asr, Eron) har bir musulmon uchun "kerakli bilim"ni shu yuqoridagi iboralarda ifodalab bergandi.

Musulmon maktablarining tiplariga, asosan, bunday maktablarning Markaziy Osiyoda rivojlanish masalasiga to'xtalib o'tamiz.

Arab istilosidan oldingi davrda markaziy Osiyodagi o'qitish tizimi to'g'risida ham bir yo'la taqqoslab, gapirib o'tamiz. Bu bilan biz yashab turgan joylarimizdagi ajdodlarimiz ham anoyi, soda odamlar emasligiga, madaniyati rivojlanayotgan xalq ekanligiga amin bo'lasiz.

IX asrda yashagan faylasuf Farobiyning yozishiga qaraganda (u asli Sirdaryolik turklardan bo'lib, Bog'dodda o'qigan), mohir dabir arab tilini (lug'at va grammatikasini) ritorikani (mantiq va o'z fikrini erkin bayon qila olish), xusnixat va arifmetikani bilishi kerak edi. XI asrda chop etilgan "Sayohatnoma" (Nizomul-Mulkning hukmdorligi haqida) asarida Samarqanddagi boshlang'ich maktab tasvirlanadi; shu maktabda o'zining olimligi bilan shuhrat qozongan bir mashhur dabir yozgan hujjatni o'rnak qilib, yozishni o'rganar ekanlar.

Arab xalifaligi mustamlakasi tarkibiga kirgan hududlar maktablarida o'quv-tarbiya ishlari juda soda usulda o'qitilgan. Arab alifbosini o'rganganlaridan keyin bolalarga Qur'ondan parchalar o'qitila boshlangan. O'quvchilar o'zlari o'qigan arabcha matnning ma'nosini tushunmaganliklari uchun ular Qur'ondan olingan parchalarni shu maqsadga maxsus moslashtirilgan kitoblar. "Haftiyak", "chorkitob", bo'yicha yodlab olar edilar. Bunday o'qishga 2-3 yilcha vaqt ketardi. Maktablara bolalarni o'qitish shu bilan tugardi. Bu maktablarda ham boshqa diniy maktablardagi kabi, kaltaklash, tan jazolari "yatbiya"ning "sinalgan" usuli hisoblangan.

Xitoy sayyohi Syuan szyan 630-yilda Samarqand haqida quyidagilarni yozadi: Bu shaharda o'g'il bolalarning hammasi besh yoshdan boshlanb yozish va hisoblashga o'rgatiladi, o'smirlik yoshiga yetganda esa savdo ishini o'rganmoq uchun savdogarlarning karvonlariga qo'shilib, safarga jo'neydilar. "Buyuk ipak yo'li bo'yicha savdo-sotiq ishlarini o'z qo'liga kiritib, olgan savdogarlarning bolalarigina shunday qilardilar, albatta.

Albatta, Markaziy Osiyo mamlakatlari arablar tomonidan mustamlaka qilinganida anchayin ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Ma'naviy va madaniy hayotdahan juda yaxshi o'zgarishlar bo'ldi.

Islom dinini yoyish harakati boshlanmasdan sal vaqt oldin arablar xat-savod nimaligini qo'shni xalqlardan o'rgana boshladilar. Muhammad S.A.V. payg'ambar nomi bilan bog'langan islom dini ta'limoti, dastlabki vaqtlarda, og'zaki tarzda tarqatib

kelindi. Bu diniy harakat rahbarlari Qur'anni ko'chirib yozish savobli ish deb e'lon qildilar. Xatiblar bittadan qur'on ko'tarib olib, uni qiroat bilan o'qib boradigan bo'ldilar.

Arab davrlari ta'lim tizimi, ya'ni "Islamic Golden age" (Islomiy Oltin asri) deb ataladigan davrda, 8-13 asrlar oralig'ida, Arab dunyosida o'zining ilmiy, falsafa, adabiyot va san'at sohalarida yuqori darajada rivojlanishini anglatadi.

Xulosa qilinsa, bu davrda, Arab xalqining ilmiy va madaniy yuksalishining asosiy sababi Islom dinining tarixiy rivojlanishi va bu dinning ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berishiga imkon berishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1/2), 92-96.
2. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадиий – психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. *О'zMU xabarлари. Toshkent – 2022. №1/5.*
3. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. *Eurasian Scientific Herald. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.*
4. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma" *Central Asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.*
5. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*,3, 710-719. (2023)
6. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*,3, 734-745 (2023).
7. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. *Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995*
8. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414*
9. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.*
10. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. *Eurasian Scientific Herald, 7, 240–242. Retrieved from*

11. Jobborova Gulnoza Kadamovna. PEDAGOGIK ODOB-AXLOQ VA TALABA XULQ – MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(1/2), Jan., 2023. 97-105.